O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA’LIMI VAZIRLIGI

BUXORO VILOYATI PEDAGOGIK
MAHORAT MARKAZI

BUYUK DAVLAT ARBOBI VA SARKARDA, ILM-FAN, MADANIYAT VA SAN’AT HOMIYSI SOHIBQIRON AMIR TEMUR – MILLIY DAVLATCHILIGIMIZ TIMSOLI

RESPUBLIKA ILMIY-NAZARIY ONLINE KONFERENSIYASI MATERIALLARI

Buxoro-2026 yil 7-aprel

To‘plamda buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san'at homiysi Sohibqiron Amir Temur - milliy davlatchiligimiz timsoli masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, buyuk temuriylar tarixi va ma'naviy merosi -yosh avlodni Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari etib tarbiyalashda muhim manba sifatidagi roli, Amir Temurning ilm-fan, madaniyat va san'at homiysi sifatidagi faoliyati - Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini yaratishda muhim omil sifatidagi ahamiyati, Amir Temurning Yevropa davlatlari bilan diplomatik va elchilik aloqalari -Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatidagi pragmatik hamda manfaatli hamkorligining timsoli haqidagi fikrlar bayon etilgan tezis va maqolalar kiritilgan.

Ushbu to‘plam soha mutaxassislari, professor-o‘qituvchilar, umumiy o‘rta ta'lim maktablari o‘qituvchilari, tadqiqotchi-izlanuvchilar, magistr va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA TASHKILIY QO‘MITASI:

A.A.Xamidov – Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi direktori, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), rais.

Yu.X.Xaydarov – Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasi mudiri, tarix fanlari nomzodi, dotsent, a'zo.

B.Ya.Axmedov – Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi “Tillarni o‘qitish metodikasi” kafedrasi dotsenti, a'zo.

U.A.Kosimov – Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi «Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari» kafedrasi mudiri, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent, a'zo.

N. X.Aslanova – Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi “Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta'lim metodikalari” kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, a'zo.

uning yetuk sarkarda bo‘lib yetishganidan darak beradi. Uni buyuk shaxs sifatida shakllanishiga otasi Muhammad Tarag‘ay bevosita ta’sir ko‘rsatib, uning dunyoqarashining yuksak darajada shakllanishiga hamda yoshiga va tengdoshlariga nisbatan ancha ilgarilab ketishiga zamin yaratgan. Sohibqiron Amir Temurning yuqorida keltirib o‘tilgan shijoati, qobiliyati hamda yuksak insoniy fazilatlari yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi hamda ularga ibrat namunasi bo‘lishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobi 2021- yil.

2. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Qurolli Kuchlar tashqil etiganligining 30 yilligi bayramidan so‘zlagan nutqi 2022- yil.

3. J.H.Ismoilova, L.G.Levteyevalarning “O‘zbekiston harbiy san’ati tarixi” kitobi 2013- yil.

4. “Temur tuzuklari” (forschadan ko’chirma). T., 1991- y.

5. Amir Temur o’gitlari. T., Cho’lpon, 1992- y.

6.Zafarnoma – Sharafiddin Ali Yazdiy

7. Bo‘riboy Ahmedov. Amir Temur haqidagi ilmiy tadqiqotlar

8. Одилов А.А. Амир Темур тузуклари – давлат бошқаруви асоси. Тошкент 2016, Б.173.

9. O‘zbekiston tarixi (darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar)

10. Temuriylar davri bo‘yicha zamonaviy ilmiy maqolalar

BUYUK AJDODLARIMIZNING ILMIY-MA’NAVIY MEROSI VA SHAXS KAMOLOTI TO‘G‘RISIDAGI QARASHLARIDA PSIXOLOGIYANING O‘RNI

LATIBJONOV RAHMATILLO ABDURASHID O‘G‘LI,
Andijon viloyati Pedagogik mahorat markazi

Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada Sharq mutafakkirlarining inson kamoloti, axloqiy tarbiya va ma’naviy qadriyatlar haqidagi qarashlari tahlil qilinadi. Xususan, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va Umar Xayomning ilmiy merosi asosida shaxs tarbiyasi, axloqiy fazilatlar va ijtimoiy muhitning o‘rni yoritilgan. Shuningdek, Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan va ma’naviyat rivoji, davlat boshqaruvida axloqiy tamoyillarning ahamiyati ochib berilgan. Maqolada din psixologiyasi nuqtai nazaridan inson xulq-atvori, ijtimoiy munosabatlar va ma’naviy kamolot masalalari ham tahlil etilib, zamonaviy jamiyatda diniy va ma’naviy qadriyatlarning tutgan o‘rni asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Sharq mutafakkirlari, ma’naviy meros, axloqiy tarbiya, shaxs kamoloti, din psixologiyasi, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Xayom, Amir Temur, temuriylar davri, ilm-fan, ma’naviyat, ijtimoiy muhit.

Аннотация. В статье анализируются взгляды восточных мыслителей на духовное развитие личности, нравственное воспитание и роль социальных факторов. В частности, на основе научного наследия Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino и Umar Xayom раскрываются вопросы формирования личности, нравственных качеств и влияния среды. Также освещается развитие науки и духовности в эпоху Amir Temur и Темуридов, а также значение нравственных принципов в государственном управлении. В статье рассматриваются вопросы психологии религии, влияния религиозных ценностей на поведение человека и их роль в современном обществе.

Ключевые слова: Восточные мыслители, духовное наследие, нравственное воспитание, развитие личности, психология религии, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Xayom, Amir Temur, эпоха Темуридов, наука, духовность, социальная среда.

Annotation. The article analyzes the views of Eastern thinkers on personal development, moral education, and the role of social factors. In particular, based on the scientific heritage of Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, and Umar Xayom, the issues of personality formation, moral values, and the influence of the social environment are discussed. The article also highlights the development of science and spirituality during the period of Amir Temur and the Timurids, emphasizing the importance of moral principles in governance. Furthermore, the study examines the psychology of religion, its impact on human behavior, and its role in modern society.

Keywords: Eastern thinkers, spiritual heritage, moral education, personal development, psychology of religion, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Xayom, Amir Temur, Timurid period, science, spirituality, social environment.

O'tmishda buyuk allomalar va muallimu soniylarni yetishtirgan bu zamin, shubhasiz, kelajakda ham ana shunday ulug' zotlarni tarbiyalash salohiyatiga egadir.

Bizning tariximiz qanchadan-qancha biz faxrlansak, g'ururlansak arziydigan zotlar va mutafakkirlar o'tgan. Ularning ulkan ilmiy merosi va tarbiyaviy hayot yo'li bizga bamisoli chiroq vazifasini o'tashi hech kimga sir emas. Ular o'z bilimi bilan dunyoni zabt etishlariga asosiy sabablardan biri albatta, ular tomonidan dinga e'tibor berilganligidur. Shaxsni kamol topishi, uning xususiyatlari va xarakteri to'g'risida garchi o'sga davrda psixologiya deb atalmasada, boshqa nomlar ostida juda katta e'tibor qaratilgan.

Xususan, Abu Nasr Farobiy (880-950) Mavorounnaxrda Farob viloyatining Vasij qishlog'ida tug'iladi. Falsafaga teran qiziqishi bor edi. Yunon faylasuflarining

va ayniqsa Arastu (Aristotel)ning asarlarini sinchiklab o‘rgandi. Farobiy o‘zining ko‘p kirrali ijodi bilan kelajak avlodning bilim va madaniyatiga erishishida inson kamolatiga alohida e’tibor berdi. Farobiy insonning qadr-qimmatiga, uning aql-zakovatining ijodiy va bunyodkorlik kuchiga yuksak baho beradi. Inson Farobiy uchun shunchaki biologik mavjudod emas, u o‘z moxiyatiga ko‘ra, aql-idroki tufayli hayvonot dunyosi chegaralaridan tashqariga chiqadi, uning aql-idroki mehnati bilan bir qatorda uni ijtimoiy jixatdan faol qilib qo‘yadi. Farobiy komil inson tushunchasini qo‘yidagicha talkin etadi: Ilmiy bilimlarni egal-lash va ush bilan barcha, uning o‘qtirishiga ilmiy bilimlar, go‘zal xashti harakatlar va ahloqiy fazilatlar bilan bezatilgani bo‘lishi kerak. Kishining bilimlarga bo‘lgan in-tilishini esa guyo daraxt meva bergani kabi o‘z bilim va ahloqlari bilan jamiyatga foyda keltirishi lozim.

Inson tabiatini tahlil etarkan, shu jumladan uni turli tomonlarini biologik, psixo-fizologik, psixologik va ijtimoiy-siyosiy jihatlarini qarab chiqadi. Farobiyning fikricha ahloqiy tarbiyaning vazifasi ham har bir shaxsda foydali jihatlarni namoyon qilishi va go‘zal xatti-harakatlarni shakllantirishdan iboratdir. Farobiy o‘zining asarlarida ijobiy va salbiy xatti-harakatlarga tavsif beradi. Kishining ahloqiy xatti-harakati va xarakterini ba’zi olimlar tug’ma xususiyat deb talqin qildilar, ya’ni kishining yaxshi yoki yomon, aqlli yoki nuksonli, mukammal yoki norosoligi xudodan deb bildilar. Farobiy uqdirdiki, «aqlning tug’maligi» aslo inson hayotida qanday bo‘lsa, xuddi shundayligicha tug‘iladi, degan ma’noni bildirmaydi. Inson – aqlli mavjudod deyilganda, buning ma’nosi u aqlli bo‘lishiga layoqatlidir, lekin inson xuddi shuningdek yomon va yaramas xatti-harakatlariga ham qodirdir.

Mutafakkir bunday deb yozgan: «Bu xususiyatlar har bir ayrim kishining ham, har bir guruhning ham o‘z tabiatida yashirinib yotadi»; ular tabiiy mohiyatlarining o‘zidan kelib chiqadi.

Shuning uchun ham Farobiy tug’ma g’oyalarni tan olmaydi, uning fikricha inson kamolati ta’lim-tarbiyaga bog’liq. Tarbiyani to‘g’ri tashqil etish, to‘g’ri

samara berishni uqtirib o‘tadi. Farobiyning fikricha, bilimlar insonni xulq-ahloqli, saxovatli va aql idrokli qiladi, bilimlarsiz inson o‘zi ko‘zlab yashayotgan maqsadga erisha olmaydi. Abu Rayhon Beruniyning fikricha, insonning ma'naviy qiyofasi uning oldiga qo‘yilgan vazifalariga mos bo‘lmog'i uchun u yuksak ahloqli, bilim-ma'rifatli bo‘lishi lozim. Mutafakkir inson xatti-harakatining ahloqiy sabablari va motivlari asoslarini insonning o‘zidan qidirgan, o‘zidan oldin o‘tgan olimlar kabi shaxsning tabiatidan keltirib chiqargan. «Odam-deydi Beruniy – tabiati jixatidan bir-biriga zid a'zolar qushilmasidan tarkib topgan murakkab tanaga ega...» va shu boisdan «uning holati o‘z xarakteriga ko‘ra xilma-xil va turli-tuman bo‘ladi». Beruniyning da'vosiga ko‘ra, hamma odamlar o‘z qiyofasi jixatidan bir-biriga o‘xshaydi, ammo ayni chog‘da ular bir-biridan farq qilib turadi. Beruyniy o‘z asarlarida og'ir nuqsonlar-ziqnalik, yolg'onchilik, munofiklik, xushomadlilikni, ayniqsa kishilarning o‘z bilimlariga, qobiliyatlariga va ahloqiy xislatlariga muvofiq bo‘lmagan yuksak mavqeni egallashga intilishlarini qattiq qoralaydi. O‘rta asr Sharqining ijitmoiy-pedagogik g'oyalarini rivojlantirish ishida, ayniqsa Abu Ali Ibn Sinoning xizmatlari shubhasizdir. Uning ayniqsa, ahloq va ahloqiy tarbiyaga nisbatan bo‘lgan qarashlari kishida alohida qiziqish uyg'otadi.

Ibn Sino «Ahloq haqidagi risolasida inson to‘g'risida gapirib, odamdagi yaxshi va yomon xulqning hammasi ijtimoiy sharoit, tarbiya va adolat natijasida vujudga kelishni ta'kidlaydi. Yaxshi ahloqli kishida insonning eng yaxshi fazilatlari mujassamlashganini aytadi. Shunday fazilatlar jumlasiga insonparvarlik, haqiqiy do‘stlik, sadoqatlik, kelajakka ishonch bilan qarash, mehnatsevarlik, mustahkam iroda, tadbirkorlik va shu kabilarni ko‘rsatib, u kishilarni shunday fazilat egasi bo‘lishiga chaqiradi. U kishilardagi qo‘rqoqlik, ikki yuzlamachilik, aldamchilik, munofiklik, dangasalik va ochko‘zlik kabi salbiy hislatlarni qoraladi va odamlarni bunday illatdan qochishga undaydi». Umar Xayom faylasuv sifatida «Borlik va majburiyat haqida risola», «Uch savolga javob», «Umumiy fanning predmeti haqida aqlning nuri», «Majudlikning umumiyligi to‘g'risida risola» kabi asarlar yaratdi.

Umar Xayomning nuqtai nazaricha, xulq-atvor ikki yo‘l bilan: odat qilib olish yordamida va fikrlash jarayonida yuzaga keladi. Bu yo‘llarning ikkalasi ham bir ishda ahamiyatga ega. Yomon xatti harakatlar odat tusiga kirib qolishi, yomon ahloq bo‘lib mustaxkamlanib qolishi mumkin, xuddi shuningdek «chiroyli» xatti-harakatlar ham «chiroyli» ahloqqa aylanishi turgan gap. Bu bilan u insonning ahloqiy qiyofasini, uning xarakterini faol ravishda shakllantirish mumkinligini isbotlagan edi. Tarbiyaning maqsadi, Umar Xayomning fikricha, «sog’lom fikr, ziyrak aql va o‘tkir zexnga ega bo‘lgan» insonni shakllantirishdan iborat bo‘lmog’i kerak. «Faqat chuqur zexngina, deb qayd qilgan edi olim, - barkamol qalbni qondira oladigan ilxomga erishishi va uning yordami bilan yuksak aql-idrok farog‘atini hosil qilishi mumkin». Buyuk allomalarimiz faoliyatiga nazar solsak juda ko‘p hollarda din va ilmiy faoliyatining uyg‘unligiga guvoh bo‘lamiz.

Amir Temur davri ham Sharq ma’naviy-ma’rifiy tafakkurining yuksalish bosqichlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda va davlat arbobi, balki ilm-fan, madaniyat va ma’naviyat homiysi sifatida ham tarixda chuqur iz qoldirgan. U o‘z davrida olimlar, mutafakkirlar, ulamolar va san’atkorlarni qo‘llab-quvvatlab, ularning faoliyati uchun qulay shart-sharoit yaratgan. Natijada Movarounnahr hududi ilmiy va madaniy markazga aylangan.

Sohibqiron davlat boshqaruvida ma’naviy qadriyatlar, adolat va axloqiy tamoyillarga katta e’tibor qaratgan. Uning Temur tuzuklari asarida jamiyatni boshqarish, insoniy fazilatlarni shakllantirish, rahbarning mas’uliyati va axloqiy qiyofasi kabi masalalar keng yoritilgan. Bu esa uning shaxs kamoloti va ijtimoiy taraqqiyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni chuqur anglaganini ko‘rsatadi.

Temuriylar davrida, xususan Mirzo Ulug‘bek faoliyati natijasida ilm-fan yanada rivoj topib, astronomiya, matematika va boshqa fanlar yuksak darajaga ko‘tarildi. Bu davrda yaratilgan ilmiy va ma’naviy meros Sharq uyg‘onish davrining muhim poydevoriga aylandi.

Shunday qilib, Amir Temur va temuriylar davrida shakllangan ma’naviy, ilmiy va madaniy muhit yuqorida tilga olingan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi allomalar ilgari surgan g‘oyalar bilan uyg‘un holda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilgan.

Amerikalik sotsiolog T.Parsonsning fikricha, har qanday ijtimoiy sistema muayyan cheklovlarsiz mavjud bo‘la olmaydi. Buning uchun u qonun darajasiga ko‘tarilgan axloq normalarini ishlab chiqishi kerak. Din bunday normalarni qonunlashtiribgina qolmay, ularga bo‘lgan munosabatni ham belgilaydi. Amerikalik psixolog va faylasuf Uilyam Jeyms (1842-1910) din psixologlarining aksariyati ushbu sohaning asoschisi sifatida qaraydilar. Jeymsning bir-biridan farq qiladigan ikkita institutsional din va shaxsiy din nazariyasi mavjud edi. Institutsional din diniy guruh yoki tashqilotga tegishli bo‘lib, jamiyat madaniyatida muhim o‘rin tutadi. Shaxsiy din, unda shaxs mavjud sirli tajriba, madaniyatidan qat'i nazar, tajribali bo‘lishi mumkin. Jeyms shaxsiy diniy tajribani tushunishdan ko‘proq manfaatdor edi. Din psixologiyasi - bu umumiy ilmiy psixologiyaning ma’lum sohasi bo‘lib, uning maqsadi insonning barcha ko‘rinishlarida dinga amal qiluvchi jarayonlarni tushunishdir. Uning atrofidagi mavzular bir sohadan (masalan, inson diniy, ma'naviy yoki muqaddas deb hisoblashi mumkin bo‘lgan tajribalar bilan bog‘liq ong jarayonlari) umumiy (masalan, murakkab individual va guruhni diniy ijtimoiy xatti-harakatlari bilan bog‘liq psixologik omillar), o‘rtasida tahlilning ko‘p darajalarini aks ettiruvchi psixologiyaning barcha standart sohalari bilan - masalan, o‘rganish, rivojlanish, shaxsiyat, kognitiv, pertseptiv, motivatsion, hissiy va ijtimoiy psixologik jarayonlarni hisobga olinishini taqozo etadi. U ikkalasini ham tushunishga harakat qiladi va insonda kechayotgan jarayonlarni bevosita din vositachiligida tahlil qiladi. Oliy ta’limda zamonaviy texnologiyadan foydalanib dinni o‘qitish, Jon Xilton tomonidan ilgari surilgan.

Shaxslararo munosabatlarda bo‘shliqni to‘ldirishga intilishda din psixologiyasi yaqindan yordam beradi. Diniy fanlar ta'limi va zamonaviy texnologiyalar o‘rtasida Xiltonga ko‘ra hech qanday tafovut yo‘q.

Dinni o‘rgatish kontekstida texnologiyadan foydalanish bo‘yicha yangi istiqbollar", - deb ta'kidlaydi Xilton professor va talabalarga faqatgina foyda keltiradi. Frommning fikriga ko‘ra, odamlar barqaror ma'lumot bazasiga muhtoj. Din bu ehtiyojni to‘ldiradi. Aslida, odamlar boshqa hech qanday bilim manbai topa olmaydigan savollarga javobni xohlashadi, bu savolga faqat dingina javob berishi mumkin. Biroq, din sog‘lom ko‘rinishi uchun iroda erkinligini berish kerak. Dinning avtoritar tushunchasi zararli ko‘rinadi. Adler uchun muhim narsa shundaki, Xudo (yoki Xudoning g‘oyasi) odamlarni harakat qilishga undaydi va bu harakatlar o‘zimiz va boshqalar uchun haqiqiy oqibatlarga olib keladi. Xudoga bo‘lgan qarashimiz muhim, chunki u bizning maqsadlarimizni o‘zida mujassam etadi va ijtimoiy o‘zaro aloqalarimizni boshqaradi. Din farovonlikka ijobiy ta'sir qiladimi? Diniy e'tiqodlar bizni axloqiyroq qiladimi? Din psixologiyasi odamlarning din va diniy e'tiqodlar, ma'naviyat, fundamentalizm haqidagi ko‘pincha qarama-qarshi fikrlarini o‘rganadi. U dinning axloq, salomatlik va ijtimoiy xulq-atvorga ta'sirini tahlil qiladi va bizning zamonaviy jamiyatimizda dinning o‘rni nechog‘lik muhimligini o‘rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 146 b.

2.Abu Nasr Forobiy. «Fozil odamlar shahri» «A.Qodiriy» nashriyoti. T. 1993 yil.

3.Abu Rayhon Beruniy. O‘ylar, hikmatlar, naqllar,she’rlar. Toshkent. Yosh gvardiya. 1973.44-bet

4.Rahimov S. Abu Ali Ibn Sino. Ta’lim va tarbiya haqida. – Toshkent, O‘qituvchi, 1967. – 75 bet

5.Xoshimov K. Pedagogika tarixi Oliy o‘quv yurtlari va universitetlar talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, O‘qituvchi, 1996, - 191-bet

6.Filipp Zimbardo, Maykl Lyayppe. Sotsialnoe vliyanie.- SPb, 2000.- 448 s.

“TEMUR TUZUKLARI”- DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVINING MUMTOZ MEROSI

GADOYEVA MAQSUDA IBODOVNA,
Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sharq davlatchiligi tarixida buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temurning tutgan o‘rni yoritiladi. U nafaqat yirik imperiya barpo etgan mohir sarkarda, balki davlatni adolat, qonun ustuvorligi va qat’iy tartib asosida boshqarish tamoyillarini ishlab chiqqan dono hukmdor sifatida ham tarixda muhim iz qoldirgan.

Maqolada Amir Temurning siyosiy, harbiy va ma’naviy qarashlari “Temur tuzuklari” asari misolida tahlil qilinadi. Mazkur asar davlat va jamiyat boshqaruvi, harbiy intizom, adolat tamoyillari hamda hukmdor va xalq o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi muhim tarixiy manbalardan biri sifatida baholanadi.

Shuningdek, maqolada Amir Temur merosining bugungi Yangi O‘zbekiston davlatchilik taraqqiyotidagi ahamiyati ko‘rib chiqilib, uning g‘oyalarini yosh avlod ongiga singdirish, ularda vatanparvarlik, adolat va mas’uliyat tuyg‘ularini shakllantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, davlatchilik, Sharq tarixi, sarkarda, davlat arbobi, adolat, qonun ustuvorligi, boshqaruv tamoyillari, Temur tuzuklari, harbiy intizom, ma’naviy meros, siyosiy qarashlar, vatanparvarlik, Yangi O‘zbekiston, tarixiy manbalar, yoshlar tarbiyasi.

10.	Sadullayeva Vazira Ismatovna	Amur Temur merosining bugungi kundagi ahamiyati	55
11.	Ubaidulla Ahrorovich Kasimov	Tasavvuf ta'limotining qadriyatlar transformatsiyasidagi roli	59
12.	Gadoyeva Maqsuda Ibodovna	Amir Temur va temuriylar davrida ma'naviy merosimizga bo'lgan e'tibor	67
13.	Sharofiddinov Rivojiddin Shamsiddinovich	Amir Temur buyuk adolat sohibi	72
14.	Xasanova Iroda Ikromjon qizi	Amir Temur shaxsiyati asosida maxsus ehtiyojli o'quvchilarda liderlik va irodaviy sifatlarni shakllantirish	78
15.	Хамидова Гулнора Юлдашбаевна	Актуальные вопросы воспитания молодежи в духе патриотизма	82
16.	Soliyev Mirzoxid Tursunxo'jayevich	Temuriylar davri ma'naviy merosining yosh avlodda vatanparvarlik motivatsiyasini shakllantirishdagi psixologik ahamiyati	89
17.	Ubaidulla Ahrorovich Kasimov	Psixologik iqlimning ta'lim sifatiga ta'siri	94
18.	Gadayeva Munira Muxamedovna	Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat, tarbiya va shaxsiy fazilatlarning o'smir egoizmi kontekstida o'rni	100
19.	Narziyeva Mastura Sunnatovna	Amir Temur — milliy g'urur va o'zlik timsoli	108
20.	Latıbjonov Rahmatıllo Abdurashıd o'g'lı	Buyuk ajdodlarımızning ilmıy-ma'navıy merosi va shaxs kamoloti to'g'risidagi qarashlarida psıxologiyanıng o'rni	112
21.	Gadoyeva Maqsuda Ibodovna	"Temur Tuzuklari"- davlat va jamiyat boshqaruvining mumtoz merosi	120
22.	Ochilova Gulruxsor Odilovna	Amir Temur o'gitlarining maktabgacha ta'limdagi o'rni va ahamiyati	126
23.	Muxidov Asqar Raxmatovich	Temuriylar davriga oid tarixiy-madaniy merosni raqamlashtirish va virtual rekonstruksiya qilish texnologiyalari	130